ifodalovchi birliklarning lingvokulturologik xususiyatlarini tillar orasidatadqiq qilish “do‘st” va “begona” konseptik birliklarning o‘rnini aniqlash va aktuallashtirish borasida olib borililayotgan mazkur tadqiqot ishning dolzarbligi, tadqiqotning ob’ekti va predmetini belgilashga ham asos bo‘la oladi. Kasbiy-sohaviy muloqotda foydali bo‘lgan paremiyalarga doir tadqiqotlar ham mavjud. Ayniqsa, kognitiv-diskursiv nuqtai nazardan o‘rganishida rus olimlaridan N.D.Arutyunova, I.V.Gorban, Ye.Skubryakova, A.Konstantinova kabilarning tadqiqotlarini alohida ta’kidlash mumkin. Kognitiv tilshunoslik muammolari o‘zbekistonlik olimlar A.A.Abdualazizov, D.U.Ashurova, A.E.Mamatov, M.I.Rasulova, N.Mahmudov, R.X. Shirinova, O‘.K.Yusupov, J.A.Yoqubov, I.M.Tuxtasinov, M.V.Ergasheva, va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida muayyan darajada tadqiq etilgan. Paremiyaning bir turi bo‘lgan frazeologiya tilshunoslikning mustaqil tarmog‘i sifatida XXning birinchi yarmida rus tilshunosligida paydo bo‘lgan. Bu borada, ayniqsa, Sh.Rahmatullayev, B.Yo‘ldoshev, A.Mamatov, Sh.Almamatova va boshqa tilshunoslarning xizmatlari katta. Biroq axloqiy qadriyatlarni ifodalovchi birliklarning lingvokulturologik xususiyatlarideyarli o‘rganilmagan, qolaversa, konsept darajasida maxsus ilmiy tadqiq etilmagan, axloqiy qadriyatlarni ifodalovchi birliklar o‘zbek va ingliz tiliga doir matnlar, xususan, “do‘st” va “begona” konseptlari doirasida pragmatik lingvokulturologik nuqtai nazardan maxsus tekshirilmagan edi. O‘zbek va ingliz tillaridagi axloqiy qadriyatlarni ifodalovchi birliklarning lingvokulturologik xususiyatlarini “do‘st” va “begona” konseptlari misolida tadqiq etadi. Uni amalga oshirish quyidagi vazifalarni bajarishni taqozo qiladi: - jahon va o‘zbek tilshunosligidagi mavzuga aloqador ilmiy adabiyotlarni o‘rganish va ularga munosabat bildirish; tadqiqotning asosiy tadqiqot yo‘nalishlarini tahlil qilish; o‘zbek va ingliz tillarida “do‘st” va “begona” konseptlari misolida axloqiy qadriyatlarni ifodalovchi birliklarning lingvokulturologik xususiyatlarini tavsiflash o‘zbek va ingliz tiliga doir axloqiy qadriyatlarni ifodalovchi birliklarning (“do‘st” va “begona” konseptlari misolida)lingvokulturologik, umumlisoniy xususiyatlarini aniqlash; o‘zbek va ingliz tiliga doir axloqiy qadriyatlarni ifodalovchi birliklarning lingvokulturologik xususiyatlarinianiqlash va tavsiflash; o‘zbek va ingliz tiliga doir axloqiy qadriyatlarni ifodalovchi birliklarning lingvokulturologik xususiyatlarini funksional xususiyatlarini tizimlashtirish. Shuningdek, umumiy nutq nazariyasi bilan bog‘liq ko‘plab muammolarni ishlab chiqish amaliyotida, nominativ faoliyatning kognitiv jihatlari, shuningdek, darslik, uslubiy ko‘rsatmalar tayyorlashda foydalanish mumkin.

KASBIY BILIMLARNI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH

*Umarova F.A., PhD, dotsent,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
(Toshkent, O'zbekiston)*

Yurtimizning mustaqillik yillarida ta'lim tarbiya tizimini isloh qilish, kadrlar tayyorlashni zamon talablari darajasiga ko'tarish sohasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston hukumati ta'limga islohotlarning barcha bosqichlari uchun ham ustuvor soha deb qarab kelmoqda. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4963-son Qarori va Xalq ta'limi vazirligining 2021-yil 23-martdagi "Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlari faoliyatini takomillashtirish, kurslardagi ta'lim sifatini oshirish va uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 80-sonli buyrug'i ta'lim tizimini uzviylik va uzluksizlikni taminlashga, ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun zarur shartsharoitlar yaratish hamda pedagog kadrlarni malakasini oshirishga qaratilgan. Mazkur muammoni yechish uchun so'nggi yillarda xalq ta'limi va oliy o'quv yurtlarini axborot texnologiyalari bilan jihozlash, ta'lim tizimi mazmuni, uni tashkil etish shakllari hamda sifatini oshirish borasida katta ijobiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ta'lim jarayoniga yangidan – yangi innovatsiyalarning tatbig'i kuzatilmoqda. Zamonaviy raqamli texnologiyalarning ta'lim sohasiga kirib kelishi ta'lim usullari va o'qitish jarayonini yangicha yondashuv asosida tashkil etish shakllarini sifatli ravishda qulaylashtirib, o'zgartirish imkonini bermoqda. Bu borada prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltirib o'tish o'rinlidir: «Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak».[1]

Ma'lumki, pedagoglarning an'anaviy o'qitish usullarida laboratoriya va amaliy ishlar o'tkazilishiga ko'p vaqt ajratiladi. Bu mutaxassis tayyorlashning juda muhim tarkibiy qismidir. U nafaqat o'quvchi-talabning nazariy bilimlarini mustahkamlashga, o'quv materialini o'zlashtirish samarasini oshirishga, balki muayyan sohada amaliy ko'nikmalarni hosil qilishga ham ko'mak beradi. Biroq bunday mashg'ulotlar to'laqonli natija beradi, deya olmaymiz. Sababi – laboratoriya jihozlari yetarli darajada emasligi hamda ko'pgina laboratoriya va o'quv xonalari zamonaviy moslama va

uskunalar bilan jihozlanmaganligi, mavjudlarining ham aksariyati ma`naviy eskirib qolganligi va bugungi kun talablariga to`liq javob bera olmasligidadir. Texnologiyalar tez sur`atda rivojlanayotgan hozirgi vaqtda amaliy mashg`ulotlar uchun laboratoriya va stendlarni har bir o`quv yilida qo`shimcha sarf-xarajatlar evaziga takomillashtirish talab etiladi. Bundan tashqari muhim omillardan yana biri shundan iboratki, ba`zi laboratoriya tadqiqotlaridagi ish yoki jarayonlarning sustligi sababli ajratilgan vaqt ichida ta`lim oluvchilar takror tahlil yoxud sinovlar o`tkazishga qiynalishadi, holbuki, ma`lum bir sohada yetarlicha ish ko`nikmalari va tajriba orttirish uchun amaliy mashg`ulotlarni qayta-qayta takrorlash zarur. Afsuski, ananaviy ish olib borish sharoitida laboratoriya moddiy ashyolari hamda moslamalarining tez-tez buzilishi va shu bilan bog`liq ashyolarga qo`shimcha sarflar qilinishi bois har doim ham bunday qilinavermaydi [2].

Yuqorida aytilganlarni hisobga olib, yangi tizim mutaxasis kadrlarini tayyorlash uchun muhim vazifalarni hal etishga yordam bera oladigan yangi samarali, hammabop pedagogik uslubni joriy etish zaruriyati tug`ildi, deb ayta olamiz. Buning uchun laboratoriya stendlari va o`quv ustaxonalaridagi mashg`ulotlar barcha talabalar uchun nafaqat qiziqarli, balki qulay va oson bo`lishiga erishmoq lozim. Mashg`ulotlar o`ziga jalb eta olishi, barcha ruhiy va didaktik omillarni hisobga olishi, jarayonlarni jo`shqin tarzda namoyon etishi, mashg`ulotlar o`tkazish va o`qitilayotgan fanni o`zlashtirishni, umuman butun o`qitish samarasini oshirishi, egallangan bilimlar xususida o`ziga-o`zi baho berish imkonini ta`minlamog`i zarur. Aynan shu nuqtai nazardan zamonaviy axborot texnologiyalarining tadbiq etilishi yuqorida ko`rsatilgan vazifalarni maqbul tarzda hal qilish va an`anaviy o`qitish usulining bir qator kamchiliklarini bartaraf etishga ko`mak beradi.

Virtual stendlar har bir o`quvchi-talaba uchun texnikaga o`zining kirish parametrlarini «buyurishga», o`z bilimlarini nazorat qilishga imkon beradi. Laboratoriya ishini o`tkazish, uni zarur tartibda tushunish va hokazolar bilan bog`liq vaqtdan yo`qotish esa kompyuter samarasi hisobiga kamaytiriladi [3].

Ta`lim jarayoniga virtual stendlarning joriy qilinishi natijasida, an`anaviy ta`limga qiyoslaganda, mutaxassislarni tayyorlash bo`yicha ta`lim jarayonining yanada yuqori sifati ta`minlanadi. Bunga avtomatlashtirilgan pedagog va test o`tkazuvchi, tizimlar, test topshiriqlari va o`z-o`zini tekshirish uchun savollarni o`z ichiga olgan ixtisoslashgan o`quv-uslubiy qo`llanmalardan foydalanish, o`quv jarayonining uslubiy negizini tezkor yangilash hisobiga erishiladi. Biz o`qitishning tashkiliy shakllari, zamonaviy axborot texnologiyalari hamda turli ta`lim maskanlarining o`quv imkoniga ega bo`lamiz. Bu esa ma`lum darajada turli muassasalar mutaxassislari diplomlarining qadri teng bo`lishini ta`minlaydi [4].

Demak, ta`lim jarayonida virtual stendlardan samarali foydalanish ta`lim sifatini oshiribgina qolmay, balki ulkan moliya zaxiralarini tejashga imkon beradi hamda xavfsiz, ekologik toza muhitni yaratadi. Virtual stendlar joriy etilishi ta`lim, ishlab chiqarish, boshqa davlat muassasalarining umumiy yondashuvini talab qiladi. Virtual o`qitish stendlarini, ayniqsa, qimmatbaho jihozni xarid qilishdan oldin diqqat bilan o`rganib chiqish zarur. Bu xodimlarni mahalliy sharoitda o`qitishga, ta`lim oluvchilarni xorij mamlakatlariga guruh-guruh bo`lib jo`nashining oldini olishga imkon yaratadi.

Xulosa qilib shuni aytamizki, ta`lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarining joriy etilishi quyidagilarga olib keladi:

- ta`lim jarayonini, o`quvchi-talabalarning aniq tayyorgarlik darajasini, qobiliyatlarini, yangi materialni o`zlashtirish sur`atini, qiziqish va mayllarini hisobga olib ko`proq individual ravishda yordam berish;

- o`quvchi-talabalarning bilish faoliyatlarini kuchaytirish, ularning o`z- o`zini takomillashtirish, ta`lim va kasbga qiziqishlari hamda intilishlarini qo`llab-quvvatlash va rivojlantirish;

- ta`lim jarayonida fanlararo aloqalarni kuchaytirish, borliq hodisalarini kompleks o`rganish;

- ta`lim jarayonining moslashuvchanligi, omilkorligi, tashkil topish shakllari va usullarini takomillashtirish hisobiga uni doimiy va dinamik yangilash;

- barcha ta`lim muassasalarida o`qitishning muammoli va kompyuter vositalaridan hamda virtual stendlardan foydalanish;

- ta`lim jarayonining texnologik bazasini hozirgi zamon texnik vositalarini joriy etish yo`li bilan takomillashtirish.

Adabiyotlar ro`yxati:

1. O`zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. - «Xalq so`zi» 23 dekabr 2017 yil.

2. В.Г.Маняхина Южнокорейский подход к обучению информатике в младшей и средней школе. Проблемы современного образования №6, 2015г.

3. К.В. Демушкина Электронные учебники – анализ внедрения электронных учебников в зарубежных странах (на примере США и Южной Кореи)

4. М.А.Жирнова Исследование средств геймификации в изучении программирования // Образование и наука в современных реалиях: материалы IV Междунар. науч.–практ. конф. / редкол.: О.Н. Широков [и др.] – Чебоксары: ЦНС «Интерактив плюс», 2018. – С. 191-192.

TIBBIY TA'LIMDA AXBOROT ISTE'MOLI MADANIYATINING AHAMIYATI

Umarova S.R.

*Toshkent tibbiyot akademiyasi,
(Toshkent, O'zbekiston)*

Globalashuv jarayonida mamlakatimiz barqaror taraqqiyotini ta'minlashda ilmfan, yangi texnika-texnologiyalar rivoji muhim rol o'ynaydi. Quvonarlisi shuki, mamlakatimiz rahbariyati ushbu sohalarga katta e'tibor qaratmoqda. Biz bilamizki, bugungi kunda tibbiy ta'lim sohasida xam axborot iste'moli madaniyati asosiy o'rinlarda rivojlanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasida yosh avlod tarbiyasi bugungi davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. Bu tarbiyani amalga oshirishda eng muhim vazifa esa shubhasiz pedagog kadrlar zimmasiga yuklatilgan. Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, har bir pedagog, jumladan bo'lajak pedagoglarda kasbiy, umuminsoniy va shaxsiy sifatlarni tarkib toptirish juda muhimdir. Aynan shu sifatlarning faoliyatda namoyon bo'lishi esa, ta'lim jarayonining samarali bo'lishiga, tarbiyalanuvchilarda ko'zlangan maqsadlarga erishish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kun pedagogi yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishda eng muhim rol bajarishini nazarda tutgan holda, ularga bir qator kasbiy talablar qo'yilmoqda. Ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan pedagoglar zimmasiga yuklatilgan vazifalarni a'lo darajada bajarish uchun bir qancha axborot manbalariga murojaat qilishlari odatiy holga aylangan. Aynan shu jarayonning samarali va foydali bo'lishini ta'minlash esa bevosita pedagoglarda axborot iste'moli madaniyati qay darajada shakllanganligi bilan bog'liq. Axborot iste'moli madaniyati bu - shaxsning o'quv, ilmiy-bilish, mustaqil ta'lim olish, dam olish va boshqa ko'rinishli faoliyati jarayonida paydo bo'ladigan axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan, shaxsiy axborot faoliyatini samarali tashkil qilishni ta'minlaydigan bilimlar, malaka va ko'nikmalarning tizimlashtirilgan majmuasidir. Umuman olganda, axborot iste'moli madaniyati axborotdan samarali foydalanish bilim va ko'nikmalari bo'lib, kerakli axborotni axborot resurslaridan axborot texnologiyalarining barcha ko'rinishlari orqali qidirishning turli xil bilimlaridan iborat. [1]. Axborot iste'moli madaniyatini shaxsda tarkib topishi uchun avvalo unda axborotni qabul qilish tayyorgarligi mavjud bo'lishi kerak. Xattoki tibbiy ta'limda axborot iste'moli madaniyatining ro'li beqiyos.

Axborot qabul qilish tayyorgarligining tarkibiy tuzilishi quyidagicha:

- o'zining axborot ehtiyojini ifodalash;
- axborot so'rovlarini shakllantirish qobiliyati;

-
- axborot resurslari bilimi;
 - kutubxonalar imkoniyatlarini bilish va ulardan foydalanish qobiliyati;
 - axborot qidiruvini amalga oshirish qobiliyati;
 - axborotlarni qayta ishlash bilim va ko'nikmalari;
 - axborotlarga tanqidiy yondashish, ularni tushunish va baholash hamda ulardan ijodiy foydalanish ko'nikmalari;
 - zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalana bilish.

Yuqorida ko'rsatilgan ko'rsatkichlarning axborot iste'molchilarida, xususan pedagoglarda tarkib topganligi, axborotlar bilan ishlash va ularni taqdim etishda eng samarali ravishda yondashish uchun zamin yaratadi. Axborot madaniyatini madaniyatning alohida jihatlariga nisbatan o'ziga xosligini tushinib olish real voqelikni bilishga, axborotlashgan jamiyat haqidagi tasavvurlarning rivojlanishida axborotlashgan yondashuvning vujudga kelishi natijasidagina mumkin bo'ldi. Axborotlashgan jamiyatda axborot resurslari qiymati jihatidan energiya, moliyaviy va boshqa strategik resurslardan kam bo'lmagan holda, axborot hozirgi jamiyatda xodimning malakasini oshirish, optimal yechimlarni qabul qilish, yangi professional sohani egallash, raqobatdoshlar oldida strategik ustunlikka erishishi uchun samarali foydalaniladigan iqtisodiy kategoriya tovar sifatida baholanadi. Yangi axborot texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi ta'limda axborot madaniyati ahamiyatining ortishiga muhim omil bo'lishi yaqqol ko'zga tashlanadi. [2, 106 b] Foydalanuvchi pedagog va foydalanuvchilarning axborot iste'moli madaniyatini rivojlantirish bo'yicha faoliyatlarning dolzarbligi o'qitishning yangi modelini yaratishga yo'naltirilgan zamonaviy ta'lim tizimidagi o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lib, axborot resurslariga asoslanadi. Shuning uchun ta'lim samaradorligining zaruriy sharti ta'lim hamjamiyatining yuqori axborot madaniyati hisoblanadi. Ta'lim ham jamiyatini shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin: axborot resurslari yaratuvchilar va tashkil etuvchilari, axborot resurslari iste'molchilari. Axborot resurslari yaratuvchilar va tashkil etuvchilarga asosan kutubxona xodimlari va professor-o'qituvchilarni kiritsak, axborot iste'molchilariga esa talabalar va o'z bilimini boyitib borishga intiluvchi pedagoglarni kiritish mumkin. Bu muhitda axborot resurslari yaratish va tashkil qilish to'g'ri yo'lga qo'yilmasa, yoki to'g'ri yo'lga qo'yilgan axborot resurslaridan samarali foydalanish yo'llarini bilmaslik axborot madaniyati komponentalarining bajarilmasligi bilan izohlanadi. [3]

Shuni unutmash kerakki, bugungi kunda keng tarqalgan ma'lumotlarning hammasi ham ilmiy asosga ega emas. Shularni hisobga olgan holda, o'quv auditoriyalari uchun mo'ljallangan axborotlarni o'rganish va to'plash jarayonida quyidagilarga tayangan holda yondashish foydali hisoblanadi: Axborotni ongli tahlil qila olish, Ilmiylikka tayanish. Mavzu uchun kerakli va dolzarb bo'lgan ma'lumotlarni

ajrata olish. Metodologik asosga ega bo'lgan ma'lumotlarga murojaat etish. Teran nigoh bilan qaraydigan bo'lsak har qanday sohada rivojlanish juda jadallashgan. Bulardan tashqari axborot iste'moli madaniyatida axborot psixologik xavfsizlikning ham o'rni nihoyatda katta hisoblanadi. Negaki bu tushuncha o'zida shaxsning har tomonlama kamol topishi, atrofdagi ma'lumotlarni qabul qilish saviyasining qay darajada rivojlanganligi ifodalaydi. [4]

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, axborot va uning ko'lami keng qamrovni egallayotgan shunday bir sharoitda har bir soha vakillari undan ongli va ma'lum ijobiy maqsadni ko'zlagan holda foydalana olishlari kerak. Shu jumladan, pedagogik faoliyat bilan shug'ullanuvchilarning axborot iste'moli madaniyatiga ega bo'lishlari ta'lim tarbiya jarayoning samarasi uchun foydali omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

CHET TILINI O'QISHDA LEKSIK KOMPETENTSIYANI SHAKLLANTIRISH USULLARI

*Xazratova Z.M. mustaqil izlanuvchi
O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti,
(Toshkent, O'zbekiston)*

Lug'atni o'zlashtirishda nutq faoliyatining barcha turlari juda katta rol o'ynaydi, ammo aksariyat tadqiqotchilar bu jarayonda matnlarni o'qish etakchi rol o'ynaydi degan fikrda.

Umumiy ta'rifga ko'ra, o'qish - bu ichki vaziyatda yuzaga keladigan, yozilgan matndan ma'lumot olishga qaratilgan va qisqa muddatli xotirani vizual idrok etish jarayonlari va axborotni qayta yozish jarayonida rag'batlantiruvchi, qabul qiluvchi, vositachilik qiluvchi nutq faoliyatining turi hisoblanadi. Chet tilida o'qish - bu taqlid qilmaslikka, balki chet tilidagi haqiqiy muloqot shakllaridan birini takrorlashga imkon beradigan nutq faoliyatining biridir.

O'qish "axborotni idrok etish va faol qayta ishlash jarayoni deb hisoblanadi. Bundan tashqari, u ikkita ko'rinishga ajratilgan. Birinchisi, bosma matnni idrok etish, bu ma'lumotni idrok etish orqali qayta ishlashdir. Ikkinchisi - qabul qilingan ma'lumotni anglash, ya'ni ma'lumotni semantik qayta ishlash".

O'qishning har bir turi asosida yotadigan quyidagi asosiy ko'nikmalarni ajratib ko'rsatamiz:

- asosiy tarkibni tushunish (asosiy ma'lumotlarni aniqlash va ta'kidlash: birinchi darajali ma'lumotni ikkinchi darajali ma'lumotlardan ajratish: hodisalar, faktlarning mantiqiy yoki xronologik aloqasini o'rnatish: hodisalarning mumkin bo'lgan rivojlanishini bashorat qilish: matndagi ma'lumotlarni umumlashtirish; o'qilgan narsalar to'g'risida o'z fikrini bildirish);

- matndan to'liq ma'lumotni olish (tafsilotlarni to'liq va aniq tushunish: nimanidir tasdiqlaydigan yoki oydinlashtiradigan ma'lumotni ajratib ko'rsatish; hodisalar o'rtasidagi aloqani o'rnatish, ular o'rtasidagi sabab-ta'sir munosabatlarini ochib berish: asosiy g'oyani aniqlash; ma'lumotni taqqoslash);

- zarur bo'lgan muhim ma'lumotlarni tushunish (matn mavzusining taxminiy ta'rifi; matn janrining ta'rifi: har qanday masala bilan bog'liq ma'lumotlarni aniqlash: ma'lumotlarning ahamiyatini aniqlash).

O'qishni tushunish bu umumiy og'zaki komponentning mahsulidir. Ya'ni, o'qishni tushunish lingvistik mahoratga aylanishi mumkin, uni tinglash orqali tushunish va ajratilgan so'zni o'qishda aniqlik va ravonlik o'lchovlari yordamida baholash mumkin. Shunday qilib, o'qish kompetentsiyasining dastlabki bosqichlarida

o'qishni tushunish dekodlash bilan chambarchas bog'liq bo'lishi mumkin, chunki so'zlarni o'qish qobiliyati matnni tushunish qobiliyatini cheklaydi. O'qish qobiliyatlari rivojlanib, asta-sekin matnni tushunish tajribasi ortib borar ekan, tushunish dekodlashga unchalik bog'liq bo'lmasligi va o'qishni tushunish rivojlanishini cheklaydigan umumiy lingvistik tushunish qobiliyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lishi kutilmoqda. Oddiy qilib aytganda, o'qishni tushunishga xalaqit beradigan muqobil yo'llar mavjud, chunki dekodlash va tinglashni tushunish o'qishni tushunish uchun mustaqil to'siqlar bo'lishi mumkin.

Zamonaviy metodika so'z boyligini taqdim etish va uni talabalar nutqida faollashtirish uchun turli usul va metodlarni taklif etadi. Muayyan o'qitish uslubini tanlashda o'qituvchi bir necha omillarni hisobga olishi kerak: o'quvchilarning yoshi, ularning tilni bilishi, darsning maqsad va vazifalari va o'rganilgan so'z boyligi turi va darajasi. O'rta maktabda o'quvchilarda so'z boyligini tashkil etish va uni yodlashning eng samarali usullarini mustaqil ravishda tanlash ko'nikmalarini shakllantirish zaruriyati paydo bo'ladi. Talabalar, shuningdek, o'rganilgan so'z boyligini hayotga yaqin vaziyatlarda moslashuvchan ravishda qo'llashlari kerak.

Lug'at kompetentsiyasining o'qish nuqtayi nazaridan ma'nosi bu matnni tushunishdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, o'qish ko'rsatkichlarining eng muhim ko'rsatkichi bu tushunish hisoblanadi. O'qishni tushunishni qanday yaxshilashni bilish kelajakdagi har qanday leksik savodxonlikni rivojlantirishda asosiy turtki bo'lishi kerak. Shunday qilib, leksik ko'nikmalarining o'qib tushunishni rivojlantirishga bo'lgan munosabati va hissasi juda muhimdir.

THE IMPORTANCE OF CULTURAL COMPETENCE IN HEALTH CARE

Khazratova G.Sh.

*The branch center for retraining and in-service training of academic staff under Tashkent Medical Academy,
(Tashkent, Uzbekistan)*

Health professionals that are skilled in caring for patients and demographic groups that differ in age, gender, socioeconomic level, migrant status, and ethnicity are required in a health system that serves diverse communities. Cultural competence among health professionals is seen as one technique for ensuring equal access to healthcare for people of all races and ethnicities, as well as ensuring that patients receive care tailored to their specific requirements. Many doctors, on the other hand, are unprepared to address the needs of increasingly varied populations. That is why cultural competence should be trained to increase cultural awareness, knowledge, and skills, leading to behavior change among the medical students.

Cultural competency in health care refers to the ability to provide effective, high-quality care to patients with a wide range of beliefs, attitudes, values, and behaviors. This technique necessitates the development of systems that can tailor health treatment based on cultural and language disparities. It is also necessary to comprehend the potential impact that cultural variations can have on healthcare delivery.

Communication might be hampered by differences between healthcare providers and patients. This, in turn, can influence both physicians' and patients' treatment decisions. A clinician, for example, may perceive a patient's quiet as a lack of desire in receiving care. As a result, the clinician may refrain from ordering a diagnostic test when the patient's response demonstrated their understanding of polite behavior. Language accessibility is also important. Patients are unable to accurately describe their symptoms, and doctors are unable to clarify diagnoses due to language problems. Other than language difficulties, language barriers can generate harmful and improper settings.

Cultural competency attempts to break down barriers that prevent patients from obtaining the care they require. It also works to increase communication between patients and their doctors. Cultural competence provides a road and a framework for all patients to achieve the aim of greater health. Culturally and linguistically relevant services cater to each patient's unique preferences and demands. They also aid in the improvement of health outcomes and the reduction of health inequities.

Cultural competence in health care demands accessibility. Accessibility means ensuring that language; culture, race, and other such factors don't become barriers to

patients' receiving quality care and it also enhances communication, making patients safer. Clear communication enables healthcare providers to gather correct medical data. It also promotes active discussions in which patients and clinicians can ask questions, clarify misconceptions, and establish trust. According to research, the absence of culturally competent treatment might result in avoidable errors and adverse occurrences.

Cultural competence offers healthcare practitioners intercultural communication skills and prepares them to respond to cultural differences more quickly. Furthermore, cultural competence training can assist organizations in identifying organizational rules or practices that operate as obstacles to other cultures. They can then modify them to ensure that they satisfy the demands of a wide range of patients.

О СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ СИСТЕМЫ ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ РУКОВОДЯЩИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

Халматов Р.Р.

*ТГТУ имени Ислама Каримова,
(Ташкент, Узбекистан)*

Реформирование системы высшего образования является основополагающей доктриной национальной стратегии развития Республики Узбекистан на ближайшие годы. За последнее время, в Республике Узбекистан создана прочная теоретико-методологическая, а также нормативно-правовая база для реализации данной государственной программы. Так, принятие закона Республики Узбекистан «Об образовании» в новой редакции, а также указа Президента Республики Узбекистан от 12.06.2015 г № УП-4732 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы переподготовки и повышения квалификации руководящих и педагогических кадров высших образовательных учреждений», служит надёжным фундаментом для качественной надстройки модернизации процесса подготовки кадров профессорско-преподавательского состава.

В соответствии с вышеуказанными нормативно-правовыми актами, важнейшими направлениями дальнейшего совершенствования системы переподготовки и повышения квалификации руководящих и педагогических кадров высших образовательных учреждений являются углубленное изучение преподавателями норм законодательства, последних достижений в области теории, научных и прикладных изысканий, технологического прогресса и инноваций по преподаваемой дисциплине, современных методов организации учебного процесса, а также активное внедрение в учебный процесс современных инновационных педагогических, информационно-коммуникационных технологий с использованием глобальной сети Интернет, мультимедийных систем и методов дистанционного обучения.

Бесспорно, данные мероприятия служат благим целям и устремлены только на дальнейшее развитие качества профессорско-преподавательского состава в целом. Однако, весь полезный эффект от обучения преподавателей сводится на нет субъективным итоговым тестированием, которое не позволяет продемонстрировать весь арсеналов полезных навыков, которыми овладел преподаватель. Задания итогового контроля охватывают тематики, которые не

были включены в утверждённый министерством Высшего и среднего специального образования план обучения преподавателей, сама специфика тестов составлена таким образом, чтобы не проверить насколько глубоко преподаватель овладел новыми знаниями, умениями и навыками, а лишь инспектировать его багаж энциклопедических знаний. Вопросы рода: «В каком году была принята Болонская декларация образования?» не позволяют развить навыки преподавателя по своей специальности, совершенствовать методики преподавания дисциплины студентам и оказать дальнейшую пользу преподавателю в его деятельности. Напротив, слушатель курсов готовится лишь к тому как сдать положительно итоговый экзамен и игнорирует многие, действительно полезные аспекты обучения. И к сожалению, вопросы такого рода составляют большую часть итогового тестирования.

В связи с этим, основываясь на достижениях ведущих зарубежных программах повышения квалификации профессорско-преподавательского состава, а также неоднократном личном эмпирическом опыте прохождения повышения квалификации, предлагается упразднение системы итогового тестирования и в качестве альтернативы оценивать итог обучения на курсах преподавателя на основании его выпускной-квалификационной работы. При этом, чтобы продемонстрировать новые навыки преподавателя, выпускная работа должна охватывать все модули и блоки обучения, включающие в себя овладение новейшими педагогическими технологиями, использование в процессе обучения информационно-коммуникационных технологий, соответствие материала нормам законодательства и наконец проект разработки электронного модуля по исследуемой проблематике.

Уверен, что данная альтернатива положительно скажется на качестве прохождения обучения преподавателями и найдёт благоприятный отклик со стороны профессорско-преподавательского состава.

ОБУЧЕНИЕ ГУМАНИТАРНЫХ ДИСЦИПЛИН В РАМКАХ СОВМЕСТНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПРОГРАММ

Хаширбаева Д.М., Жалилова Д.Ш.

*Ташкентский фармацевтический институт,
(Ташкент, Узбекистан)*

Совместная образовательная программа в Высших Учебных Заведениях разрабатывается и реализуется двумя (или более) вузами-партнерами, предполагающая присвоение выпускникам, успешно освоившим программу, совместных (двойных или более) степеней (квалификаций) двух (или более) вузов с выдачей соответствующих документов о высшем образовании (дипломов, сертификатов) [1. 158 с.]. Кроме того, как известно, данная программа утверждается в соответствии с современными требованиями, которая позволит в ближайшем будущем выпускать специалистов в различных областях медицинской науки [2. 227 с.]. На сегодняшний день количество ВУЗов медицинского направления, в которых действуют совместные образовательные программы увеличилось, в качестве примера можно привести Ташкентский фармацевтический институт, где образована программа и партнером выступает ФГБОУ ВО «Санкт-Петербургский Государственный Химико-Фармацевтический Университет». Согласно данной программы студенты на первом курсе обучаются по обязательным дисциплинам 1 блока, куда включены гуманитарные и естественные предметы. Все обучаемые предметы и отраженные в них темы, часы ежегодно согласуются с партнерской стороной и утверждаются в форме рабочей учебной программы Ташкентским фармацевтическим институтом. Согласно договоренности между сторонами в рабочую учебную программу по дисциплинам, в т.ч. и гуманитарным могут быть внесены некоторые изменения до 15 %.

Гуманитарные дисциплины являются неотъемлемой частью образовательного процесса, однако выделенные часы не превышают более 150-200 часов и обучение ведется в одном семестре. Во время преподавания для эффективного освоения широко используются новые педагогические технологии, основной ориентир более тесно связывать с медицинскими дисциплинами, индивидуально при необходимости подбирать исследовательские методы, которые будут способствовать творческому и креативному решению задач. По всем обучаемым гуманитарным дисциплинам по окончании курса проводится итоговый контроль в виде тестового опроса, устного либо письменного. Оценивание студентов проводится согласно

критериям оценивания отраженное в рабочей учебной программе каждой дисциплины. Целью обучения гуманитарных дисциплин является развитие у студентов логического, теоретического и аналитического мышления. Успешное освоение гуманитарных предметов позволит студентам медицинских ВУЗов постичь границы своих профессиональных возможностей. Таким образом, профессиональные компетенции будущего специалиста дополняются современными взглядами философии, психологии и педагогики, культурологии, истории, расширяется кругозор за счет познания языков (русский, иностранный, латинский), что также входит в ряд предметов гуманитарного профиля.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВИРТУАЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ МЕДИЦИНЕ

Хикматов Н.Н.

*Ташкентский государственный Университет востоковедения,
(Ташкент, Узбекистан)*

В каждой сфере мы уже не можем, обходиться без помощи технологий. Использование технологий стало привычным делом. Технологии помогают облегчить нашу жизнь, мы с помощью них можем делать дела быстрее чем обычно мы тратим на них. Особенно в образовании, где нужно внедрять инновационные методы обучения, технологии не заменимы. С помощью них мы можем организовать урок, повысить его наглядность, сделать более понятным для обучаемых.

Особенно, появления таких технологий, как технология виртуальной реальности, дало обучению новое направления.

Сперва мы хотели бы дать определения самому термину виртуальное реальность. Виртуальная реальность или VR (англ. virtual reality) — созданный с помощью технического и программного обеспечения искусственное пространство, смоделированная реальность, в которой создается иллюзия присутствия пользователя в искусственном мире, его взаимодействия с предметами и объектами этого мира с помощью органов чувств: осязания, слуха, зрения и, в некоторых случаях, обоняния и вестибулярного аппарата, включающего чувство равновесия, положения в пространстве, ускорения и ощущения веса. Полное погружение в виртуальную реальность и взаимодействие с ее объектами достигается только при использовании специальных устройств.

Обучения с помощью виртуальной реальности несколько лет назад казалось не осуществимой идеей, но сейчас можно с уверенностью сказать, что виртуальные технологии уже нашли свое место в обучении.

Рост популярности виртуальным технологиям принесло то что, с помощью их мы можем обучить, тем профессиям где есть большая опасность или нужно точное вмешательство персонала. Например, это могут быть военные, лётчики, хирурги и т.д.

Симуляторы позволяют человеку получить достаточный опыт, чтобы довести свои действия до автоматизма. Но прежние симуляторы массивные, дорогие и требуют много места и специальных условий. Системы VR, занимают

меньше места и гораздо более простые в установке, а также в них можно произвести тонкую настройку оборудования легче и эффективнее.

Виртуальные технологии можно использовать при обучении таким дисциплинам как химия, биология, физика и другие. Виртуальные технологии подходят для обучения, где нужно наглядно показать пример или провести опыт.

При обучении медицине роль виртуальных технологий может быть неоспоримой. Особенно, при обучении хирургии, стоматологии можно сказать, обучения с помощью виртуальных технологий, может помочь получить теоретические навыки не рискуя. Обучаемые в виртуальном мире могут делать сложные операции, это может помочь им быстрее освоить те навыки, которые они должны получить на практике.

Использование виртуальных технологий в медицинском образовании может помочь, для повышения следующих качеств урока:

1. **Наглядность.** С помощью 3D-графики можно воспроизвести детализацию самых сложных процессов, невидимых человеческому глазу, вплоть до распада ядра атома или химических реакций. К тому же, можно увеличить уровень детализации и увидеть движение электронов или воспроизвести механическую модель, к примеру, развития клетки человеческого организма на разных этапах. Виртуальная реальность позволяет воспроизвести или смоделировать любые процессы или явления, о которых знает современная наука.

2. **Безопасность.** VR дает возможность отрабатывать сверхсложные медицинские операции или манипуляции, без вреда и опасности для кого-либо. С помощью виртуальных технологий можно учить пилотированию или скалолазанию без каких-либо рисков для обучаемого.

3. **Вовлечение.** VR-технологии дают возможность смоделировать любую механику действий или поведение объекта, решать сложные математические задания в форме игры и прочее. Виртуальная реальность позволяет путешествовать во времени, просматривая основные сценарии важных исторических событий или увидеть человека изнутри на уровне движения эритроцита в крови.

4. **Фокусировка.** Пространство, смоделированное в VR можно легко рассмотреть в панорамном диапазоне 360 градусов, не отвлекаясь на внешние факторы.

АБУ АЛИ ИБН СИНОНИНГ СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ БОРАСИДАГИ ВАЛЕОЛОГИК ҚАРАШЛАРИ

Ходжаев Н.И., Рахимова Ш.Х., Ходжаев Б.Ж.

Самарканд Давлат тиббиёт институти,

(Самарканд, Ўзбекистон)

Аннотация. Соғлом турмуш тарзини шакллантиришдек мураккаб масаланинг ечимини топишда тарихий ёндошиш, Шарқ ва Марказий Осиё халқлари орттирган бой тажрибани ҳамда ватандошларимиз бўлмиш улуғ алломалар қолдирган илмий меросларни ўрганиш ва улардан фойдаланиш муҳим аҳамиятга эгадир.

Соғлом турмуш тарзини шакллантиришнинг асосий тамойиллари, мазмун-моҳияти маънавий меросимизда, буюк алломалар, мутафаккирлар қарашларида ўз аксини топган. Марказий Осиё мутафаккирларининг асарларида ҳам соғлом турмуш тарзининг ёрқин ифодасини кўриш мумкин.

Абу Али ибн Сино 1000 йил олдин “Соғлом кишиларнинг соғлиғи” тўғрисида асар ёзган ва унинг ҳозирги кунда ҳам нафақат сақланиб қолган, балки “энг муҳим ва энг долзарб” масла деб, дунё олимлари томонидан тан олинмоқда. Ибн Сино ўз даврида фанларнинг деярли барча соҳаларида чуқур из қолдирди. “Тиб қонунлари “ китобининг биринчи қисмидаги соғлиқни сақлаш тадбирлари ҳақидаги махсус фанида инсон саломатлигини сақлашга алоқадор омиллар тўғрисида сўз юритиб”, бунда асосан қуйидаги етти нарсани мўтадил қилишга кўпроқ эътибор бериш керак: мижозни мўтадил қилиш, ейиладиган ва ичиладиган нарсаларни танлаш, гавдани чиниқтирар, тозалаш, тўғри тузилишни сақлаш, бурунга тортиладиган ҳавони етарли ва яхши қилиш, кийимли нарсаларни яхшилаш, жисмоний ва руҳий ҳаракатларни мўтадил қилиш шу ҳаракатлар жумласига маълум даражада уйқу ва уйғоқлик ҳам кирди” деб таъкидлаган. Олимнинг фикрича, соғлиқни сақлашнинг асосий тадбири бадан тарбия, кейин овқат тадбири ва уйқу тадбирлари ҳисобланади: Бадан тарбия кишини чуқур ва кетма-кет нафас олишга мажбур қилувчи ихтиёрий ҳаракатдир, мўтадил равишда ва ўз вақтида бадан тарбия турларига ўзаро тортишиш, ёйдан ўқ отиш, тезюриш, найза отиш, сақраш, қиличбозлик, кураш ва бошқаларни киритади.

Овқатланиш тартиби ҳақида сўз юритиб, “ Овқатни иштаҳа билан емоқ ва иштаҳани қайтармаслик лозим. Қишда иссиқ, ёзда совуқ ёки илиқ овқат ейиш лозим. Жуда тўйиб ва тўлиб овқат ейиш ва ичиш ҳамма ҳолда ҳам

ўлдиргувчидир” дейди. Гавдага энг зарарли нарса меъдада овқат етишмасдан ва ҳазм бўлмасдан туриб, яна овқат киритишдир деб таъкидлаган. Уйқу вақтида дастлаб бироз муддат ўнг томон билан кейин чап томон билан, сўнгра яна ўнг томон билан ётиш керак. Шунини билиш керакки, ёстикни баланд қўйиб ётиш овқатнинг ҳазм бўлишига ёрдам беради. Ибн Сино кексаларда овқатни «кам-кам ва икки ёки уч маротаба» овқат ҳазмига қараб истеъмол қилишни буюради.

МАЛАКА ОШИРИШНИНГ НОЁБ УСУЛИ

Ходжаев Н.И., Рахимова Ш.Х., Ходжаев Б.Ж.

Самарканд Давлат тиббиёт институти,

(Самарканд, Ўзбекистон)

Аннотация. Врачларнинг дипломдан кейинги таълими соғлиқни сақлаш тизимини ислоҳ қилишнинг энг долзарб вазаларидан бири булиб хисобланади. Айниқса, аҳоли уртасида соғлом турмуш тарзини шакллантиришдек мураккаб масаланинг ечимини топишда орттирган бой тажрибани ўрганиш ва улардан фойдаланиш муҳим аҳамиятга эгадир. Бу борада Самарканд вилояти тажрибасининг тахлили натижалари келтирилган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2007 йил 19 сентябрдаги ПФ-3923 сонли “Соғлиқни сақлаш тизимини ислоҳ қилишни янада чуқурлаштириш ва уни ривожлантириш Давлат дастурини амалга оширишнинг асосий йўналишлари тўғрисида”ги Фармони, 2007 йил 2 октябрдаги ПҚ-700 сонли “Республика тиббиёт муассасалари фаолиятини ташкил этишни такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори ҳамда Вазирлар Маҳкамасининг “Худудий соғлиқни сақлаш муассасаларининг тузилмасини ва фаолиятини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2008 йил 18 мартдаги 48 –сонли қарорининг бажарилиши юзасидан муайян ишлар амалга оширилди ва оширилиб келинмоқда. Олиб борилаётган кенг қамровли ислохотлар, қилинган ўзгариш ва янгиликларда Самарканд вилоят врачлар ассоциациясининг ҳам ўз нуфузли ўрни бор.

ВВА нинг қўллаб-қувватлаши туфайли 2007-2009 йилларда врачлар малака ошириши ўқуви режалаштирилган 20 фоиз ўрнига ҳар йили 30-40 фоизни ташкил қилди. Уларнинг малака тоифаси 2006 йилдаги 29,7 фоиздан 2008 йилда 62,3 фоизга етди. Бунинг асосий сабаблари врачларга моддий ёрдам, имтиёз ва ҳужжатларни расмийлаштиришда энгилликлар берилгани бўлди. Самарканд вилоят тиббиёт муассасаларида ишловчи врачларга малака ошириш курсларида ўқиган даврида бир ойлик маоши миқдорида моддий ёрдам бериш, Самарканд шаҳридан ташқари бошқа шаҳарларда ўқишга боролмайдиганлар учун кўчма цикллар ташкил қилинди. Фақат 2007 -2008 йилларда бундай цикллар сони 40 дан ошди. Малака тоифаси олиш керак бўлган врачлар пул тўловидан озод қилиндилар ва улар учун вилоят врачлар ассоциацияси маблағ ажратди. Тоифа олиш учун зарур ҳужжатларни олдин ҳар бир врач ўзи тўлдириб бир неча мартадан вилоят соғлиқни сақлаш бошқармасига келиб –кетар эди. Эндиликда ҳар бир тиббиёт муассасида бош врач ўринбосари, меҳнат фахрийси (ассоциация

вакили), катта ҳамшира, кадрлар бўлими ва ҳуқуқшунослардан иборат комиссия тузилиб, врачларнинг тоифа ҳужжатларини тўлдириш вилоят тоифа комиссиясига тақдим этиш тизими барпо қилинди. Врачларга берилган яна бир енгиллик вилоят тоифа комиссияси жойларга бориб (уларнинг таклифига биноан) кўчма тоифа комиссияси йиғилишларини ўтказди.

Яратилган ана шундай ўқитиш ва тоифа бериш тизими врачларни оворагарчиликлардан, бекор вақт йўқотишлардан ҳамда турли хил пул харажатларидан озод этди. Уларнинг тақдирига бундай адолатли ёндашув аҳолига кўрсатилаётган ёрдам сифати ва самарасини ошишига хизмат қилади, шак-шубҳасиз.

ТИББИЁТ ВА “ЭКСТРЕМАЛ ПСИХОЛОГИЯ” ФАНИНИНГ ЎЗARO АЛОҚАДОРЛИГИ

Ҳошимова Д.

Ўзбекистон Республикаси ФВВ Академияси доценти

Бадалбаева М.

Ўзбекистон Республикаси ФВВ Академияси катта ўқитувчиси

Тиббиёт фан сифатида инсонга жуда ҳам яқин фан бўлиб ҳисобланади, чунки унинг объекти ҳам инсон бўлиб ҳисобланади. Дарҳақиқат биз ўзимиз тиббиёт ходими бўлмасак-да, ҳар куни врачларнинг касаллик ҳақидаги ва дорилардаги мазкур касалликга оид кўрсатмаларни ўқишимиз, шунингдек ўз организмимизнинг ҳолатини интернет маълумотлари билан солиштириб кўришимиз мумкин. Шундай экан, ҳар бир одам ўзига хос тиббий тушунчалар билан ён атрофини қуршаб олади. Бугунги кунда одамлар орасида биомайдндаги бузилишлар, депрессиялар, тушкунлик ҳолати, руҳий-психологик зиддиятлар ҳақида кўп эшитамиз.

Ҳаттоки баъзи социолог тадқиқотчилар ҳозирги давр маданиятида касалликлар билан боғлиқ тушунчалар ҳам ўз аксини топган деб ҳисоблашмоқда. Тиббиёт қадимда тарих билан, даврлар ўтгани сари бошқа ижтимоий фанлар билан ҳозирги кунда эса айниқса психологиянинг алоҳида соҳаси бўлган Экстремал психология фани билан боғлиқ ҳолда тараққий қилиб бормоқда.

Дарҳақиқат, бугунги кунда жаҳонда, шу жумладан мамлакатимизда жадал суръатлардаги ўзгаришлар ва содир бўлаётган фавқулодда вазиятлар сабабли ушбу соҳа вакиллари фаолиятида вужудга келаётган ноъананавий ҳолатлар, янги муаммолар Экстремал психология фанини ўқитилишининг зарурлиги ва долзарблигини белгилаб бермоқда. Дунёда юз бераётган табиий офатлар, техноген ҳалокатлар, экологик характердаги хавф-хатарларни баратараф этиш, талофотлар кўламини камайтириш, инсонлар ҳаёти ва улар томонидан яратиладиган моддий ва маънавий бойликларга етадиган зарарларнинг олдини олишни таъминлаш ўта муҳимлиги билан аҳамиятлидир. Янги аср бошларида инсонларнинг хавфсиз ҳаётини таъминлаш масалалари энг муҳим масалага айланди. Чунки, ишлаб чиқариш жараёнининг мисли кўрилмаган юксак тараққий этган технологиялар билан таъминланиши, табиий ривожланишдаги айрим нохуш вазиятларнинг мураккаблашуви аҳоли саломатлиги, атроф муҳит тозаллиги ва иқтисодиётнинг барқарор ривожланишига таҳдид солиб турибди.

Шунингдек, табиий офатлар, ишлаб чиқаришдаги турли хил бахтсиз ҳодисалар ва ҳалокатлар ўзининг тўсатдан юзага келиши билан ҳамда келтирадиган зарарлари билан ҳам ўта хавфлидир. Инсон мавжуд экан, у ўз ҳаётини тажрибасига асосланиб, у ёки бу ҳолда идрок этиш, оламни англаш, нарса

ва ҳодисаларни ажратиш каби кўникмаларга эга бўлади. Ҳозирги вақтда руҳий фаолиятнинг барча тамоийларини ўрганиш тестлари, инсоннинг шахсий ва умумий кўрсаткичларини аниқлаш усуллари кўп даражада ишлаб чиқилган. Бундай текширишлар аналитик усулда патопсихология тажрибагоҳларида олиб борилиб, улар жуда мураккаб ва кўп вақт талаб қилади, шу билан амалий психологик текширишларнинг нисбатан содда усуллари кўплаб психологлар томонидан қўлланилмоқда. Улар фавқулодда вазиятлар ходимларининг психологик ҳолати ва қутқарув ишларини олиб боришга психологик тайёргарлигини текшириш учун хилма хил амалий руҳшунослик усулларини қўлламоқдалар ва олинган маълумотларни қайд қиладилар. Шу билан бирга ҳар бир қутқарувчининг касбий психологик тайёргарлигини ошириш бўйича экстремал психолог махсус амалий машғулотлар ўтказди. Мазкур фанни ўқитишнинг асосий мақсади курсант ва тингловчиларга фавқулодда вазиятларнинг таснифини, аҳоли ва ҳудудларнинг табиий ва техноген хусусиятларини тушунтириш, уларда террорчилик ва ҳарбий ҳаракатлар оқибатида юзага келиши мумкин бўлган фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш ва оқибатларини бартараф этишни ташкил этишга доир билим ва кўникмалар ҳосил қилишдан иборат.

Инсоннинг фавқулодда вазиятлар шароитига тушиб қолиши ҳамиша унинг руҳиятига оғир таъсир қилиниши билан боғлиқ. Тиббий статистика маълумотларига қараганда, ҳалокатли фавқулодда вазиятлардан сўнг кўпчилик одамлар оғир руҳий жароҳат олишади ва кейинчалик руҳий тикланиш (реабилитация)га муҳтож бўлишади. Бундай шароитда улардан фуқаро муҳофазаси тизимида ўқиш жараёнида олган билим ва малакаларини оқилона ва тўла қўллай олишларини кутиш қийин. Одамларнинг фавқулодда вазиятлар чоғида ўзларини тутишларини таҳлил қилиш натижалари руҳиятнинг ўзгариши кўп ҳолларда тайёргарликдан ўтмаганлар орасида бўлишини кўрсатмоқда.

Демак, фавқулодда вазиятлар инсонни саросимага солиб қўймаслиги учун уни ушбу вазиятларга тайёрлаш лозим. Бунда аҳолини руҳий тайёрлаш биринчи ўринда туради. Қўйилган вазифаларни сифатли амалга ошириш учун аҳоли олдиндан бўлиши мумкин бўлган стресс ҳолатига, уни енгиб ўтишга руҳан тайёр бўлиши ҳамда стресснинг олдини олиш машқларини ўтказиш лозим. Руҳий тайёргарлик ўзи нима? Психологик тайёргарликнинг вазифалари. Руҳий тайёргарлик - бу одамларда руҳан чидамликни шакллантириш ёки қўйилган вазифаларни бажариш, хавfli вазиятларда фидокорона ҳаракат қилиш қобилиятини кучайтиришдаги хислатларини ҳосил қилиш демакдир.

Руҳий тайёргарликнинг асосий вазифалари қуйидагилардан иборат: Аҳолининг турли тоифаларида фавқулодда вазиятларда ҳаракат қилиш чоғида юқори руҳий барқарорликни ишлаб чиқиш. Ҳар бир фуқарода фавқулодда вазиятлар юз берган дамда жабрланганларга ихтиёрий фурсатда ёрдамга

келишга шайликни тарбиялаш. Аҳолининг турли тоифаларида содир бўлиши эҳтимол бўлган барча фавқулодда вазиятлардан муҳофазаланишга ирода ва малакани тарбиялаш. Фавқулодда вазиятлар вазирлиги ходимларининг жабрланувчиларга кўмаклашишга, уларни қутқариб олишга доимий шайлик, инсонпарварликни шакллантириш. Раҳбарлар таркибида юқори маънавий-руҳий сифатларни шакллантириш ва аҳолини фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қилишга шайлик ва ўзига бўлган ишончни тарбиялаш. Йирик табиий офатлар ва техноген ҳалокатлар, уларда кўп сонли аҳолининг жабрланиши, экологик ва психопатологик оқибатлари билан характерланади. Руҳий жараёнлар руҳий фаолиятнинг асосини ташкил этади ва фаолиятнинг динамик тасвири ҳисобланади. Уларсиз билимлар шаклланмайди ва ҳаётий тажриба орттирилмайди. Англаш, ҳиссий ва иродавий руҳий жараёнларга ажратилади. Жаҳон тажрибасида табиий ва техноген ҳодисалар туфайли фавқулодда вазиятларга тушиб қолган аҳолига психологик жиҳатдан кўмак бериш қуйидаги йўналишларда амалга оширилаётганлиги кузатилмоқда: жабрланувчиларни қидириб топиш ва уларни қутқариш; вайрон бўлган, бузилган, ёнғинли, сув босган, газга, тутунга тўлган объектларда қолган фуқароларни қутқариш; жабрланганларга биринчи тиббий ёрдам кўрсатиш ва уларни даволаш муассаларига эвакуация қилиш.

Турли фалокатлар, ҳалокатлар ва офатларда инсон психологиясини барқарор равишда сақлаш “Экстремал психология” фанининг асосий мақсадларидан биридир. Дарҳақиқат, буларнинг барчаси экстремал психология соҳасида илмий янгиликлар қилишни, шунингдек фавқулодда вазиятлар вазирлиги учун ёш мутахассисларни жамоатчилик талабларига мос равишда тайёрлаш стратегиясини шакллантиришнинг муҳим шартидир. Мамлакатимизда экстремал психология тарихи ҳали махсус ва кенг қамровли кўриб чиқилмаган ва бу соҳада ҳали илмий-тадқиқотларни давом эттириш бугунги кундаги долзарб масаласидир.

ПРОФЕССИОНАЛ ТАЪЛИМ МУТАХАССИСЛАРИНИ ДУАЛ ТИЗИМИ АСОСИДА КАСБИЙ ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШ МЕТОДИКАСИ

Чориев Р.К., профессор,

*“Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари
институту” миллий тадқиқот университети,
(Тошкент, Ўзбекистон)*

